


## ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2022- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 376,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 133,2 % ga ko'paydi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 5,5 % ni yoki 74,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 301,8 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 94,5 % o'zlashtirildi.



### Markazlashgan investitsiyalar

**Moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashgan  
moliyalashtirish manbalari  
hisobidan investitsiyalar  
tarkibi, % da**

**O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan, % da**

**Respublika byudjeti**

**1,9 %**

**153,8 %**

**Suv ta'minoti va kanalizatsiya  
tizimlarini rivojlantirish  
jamg'armasi**

**0,4 %**

**30,6 %**

**Tiklanish va taraqqiyot  
jamg'armasi**

**1,2 %**

**42,4**

**O'zbekiston Respublikasi  
kafolati ostidagi xorijiy  
kreditlar**

**2,0 %**

**565,4 %**

## ***Markazlashmagan investitsiyalar***

**Moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashmagan  
moliyalashtirish manbalari  
hisobidan investitsiyalar  
tarkibi, % da**

**O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan, % da**

**Korxona mablag'i**

**28,6 %**

**211,9 %**

**Aholi mablag'lari**

**20,2 %**

**104,0 %**

**Boshqa xorijiy investitsiya va  
kafolatlanmagan kreditlar**

**32,8 %**

**119,7 %**

**Tijorat banklari kreditlari va  
boshqa qarzlar**

**12,9 %**

**140,9 %**

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy  
investitsiyalar**

**21,6 %**

**357,7 %**

2022- yilning yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 394,1 mlrd so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 28,6 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,2 %i yoki 278,7 mlrd so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 298,0 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 357,7 %ni, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,6 %ni tashkil etdi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd so‘m

Respublika byudjeti-26,0 mlrd so‘m



Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi-5,1 mlrd so‘m



Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi-15,8 mlrd so‘m



O‘z.Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar-27,8 mlrd so‘m



Korxona mablag‘lari-394,1 mlrd so‘m



Aholi mablag‘lari-278,7 mlrd so‘m



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-451,1 mlrd so‘m



Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari-177,8 mlrd so‘m



Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 177,8 mlrd so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,9 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,9 %ni tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 27,8 mlrd so'm (2,0 % va 562,3 % punktiga ko'paydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 451,1 mlrd so'm (32,8 % va 39,0 % punktga kamaydi), Respublika byudjeti 26,0 mlrd so'm (1,9 % va 95,4 % punktga ko'paydi), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi - 5,1 mlrd so'm (0,4 % va 30,6 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

Shahar va tumanlar	hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati	viloyatdagi ulushi
Urganch shahri	315,0 mlrd so'm	135,6 %	22,9 %
Xiva shahri	38,6 mlrd so'm	60,2 %	2,8 %
Bog'ot tumani	55,6 mlrd so'm	63,4 %	4,0 %
Gurlan tumani	45,8 mlrd so'm	74,5 %	3,3 %
Qo'shko'pir tumani	151,9 mlrd so'm	244,2 %	11,0 %
Urganch tumani	53,9 mlrd so'm	85,6 %	3,9 %
Hazorasp tumani	60,4 mlrd so'm	99,0 %	4,4 %

## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Shahar va tumanlar

hajmi,  
mlrd so'm

o'sish sur'ati

viloyatdagi  
ulushi

Tuproqqa'l'a tumani

44,6  
mlrd so'm

112,5 %

3,2 %

Xonqa tumani

122,4  
mlrd so'm

116,7 %

8,9 %

Xiva tumani

29,4  
mlrd so'm

89,3 %

2,1 %

Shovot tumani

50,2  
mlrd so'm

81,1 %

3,6 %

Yangiariq tumani

345,1  
mlrd so'm

326,0 %

25,1 %


Yangibozor tumani

63,5  
mlrd so'm

113,4 %


4,6 %

### 2022- yil yanvar- mart oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Qo'shko'pir tumanida - 244,2 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 151,9 mlrd so'm), Urganch shahrida - 135,6 % (315,0 mlrd so'm), Yangiariq tumanida - 326,0 % (345,1 mlrd so'm), Xonqa tumanida - 116,7 % (122,4 mlrd so'm).

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga  
o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo'yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida - 22,9 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 315,0 mlrd so'm), Yangiariq tumanida 25,1 % (345,1 mlrd so'm), Qo'shko'pir tumani da 11,0 % (151,9 mlrd so'm), Xonqa tumanida 8,9 % (122,4 mlrd so'm).


**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar**



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2022- yilning yanvar-martida 714,2 ming so'm yoki 131,0 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib, 2 143,2 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,8 %ni tashkil etdi. Yangiariq tumanida 2897,6 ming so'm (yoki 321,0 %) va Qo'shko'pir tumanida 861,7 ming so'm (yoki 240,9 %) darajada qayd etildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,( %da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 53,1 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 40,6 %, boshqa xarajatlarning ulushi 6,3 %ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 142,2 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 10,3 %, ishlab chiqarish sanoati – 168,2 mlrd so'm (12,2 %), qurilish - 47,8 mlrd so'm (yoki 3,5 %), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 100,3 mlrd so'm (yoki 7,3 %), ta'lim - 15,9 mlrd so'm (yoki 1,2 %), uy-joy qurilishi - 168,3 mlrd so'm (yoki 12,2 %) va boshqa faoliyat turlari – 680,4 mlrd so'm (yoki 49,4 %).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2022- yilning yanvar-mart oylarida 478,9 mlrd so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 43,6 mln AQSH dollari), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,5 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiyligi tarkibida xorijiy investitsiyalar 317,4 mlrd so'mni tashkil etdi, shuningdek, 161,5 mlrd so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiyligi hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 298,0 mlrd so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 27,8 mlrd so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 133,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Yangiariq tumaniga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 62,2 %ni ta'minladi, Qo'shko'pir tumanida -10,4 %, Urganch shahrida - 6,3 % darajada kuzatildi.



**Xorijiy investitsiya va kreditlar**


	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan %da</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>478,9</b>	<b>161,5</b>	<b>100,0</b>	<b>34,8</b>

*shahar va tumanlar:*

<b>Urganch sh.</b>	30,0	27,8	6,3	9,5
<b>Xiva sh.</b>	9,9	9,9	2,1	25,5
<b>Bog'ot</b>	3,6	3,6	0,8	6,5
<b>Gurlan</b>	11,7	11,7	2,4	25,4
<b>Qo'shko'pir</b>	49,6	49,6	10,4	32,7
<b>Urganch</b>	6,9	6,9	1,4	12,8
<b>Hazorasp</b>	10,6	10,6	2,2	17,5
<b>Tuproqqa'l'a</b>	0,0	0,0	0,0	0,0
<b>Xonqa</b>	28,2	28,2	5,9	23,0
<b>Xiva</b>	0,5	0,0	0,1	1,5
<b>Shovot</b>	17,6	0,0	3,7	35,0
<b>Yangiariq</b>	298,1	0,9	62,2	86,4
<b>Yangibozor</b>	12,4	12,4	2,6	19,6

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 34,8 %ni tashkil qildi.

**Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (*mlrd so'm*)**



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 2,0 % yoki 27,8 mlrd so'mni, xorijiy investitsiya va kreditlar - 98,0 % yoki 451,1 mlrd so'mni, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 298,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: Sh.Babajonov  
Telefon: (62) 224-65-22**